

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирилар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И BIOTEХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	68-93
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaitbobaeva Nigora Bakmatatovna</i> T'UQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIШ B'YIЧA ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Махмудов Турсунпулат Давронович</i> ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ХАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАХЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Отонтурdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Очилова Гузаль Араловна</i> ЮКСАК МАЪНАВИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI .....	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI .....	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR .....	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) .....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI .....	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA .....	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI .....	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365
<i>Mamataliyev To'liqin Xushmatat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI .....	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИАТЛАРИ .....	397-406
<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO

SIFATIDA .....443-448

**Saidnazarova Gulshan Bolta qizi**  
Buxoro davlat universiteti  
pedagogika kafedrası o'qituvchisi  
[g.b.saidnazarova@buxdu.uz](mailto:g.b.saidnazarova@buxdu.uz)

### **AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Maqolada Imom Ismoil al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati, asarlari haqida qisqacha sharh hamda hozirgi kunda Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyatini o'rgangish shu jumladan yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Odob-axloq, hadis, ta'lim-tarbiya, "Amir-ul-mo'minin", "Imom al-muhaddisiyn" sahih, «Kitob al-ilal», «Birr al-volidayn», «Kitob al-ashribati», "al-Jome' as-sahih", "al-Adab al-mufrad", qiroat.

**Saidnazarova Gulshan Bolta kizi**  
Lecturer at the Department of Pedagogy,  
Bukhara State University

### **STUDYING THE SPIRITUAL AND ETHICAL VIEWS OF AL-BUKHARI AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

**Abstract.** The article provides a brief review of Imam Ismail al-Bukhari's life, scientific activities, and works, as well as the study of Imam Ismail al-Bukhari's activities, including the essence of the reforms implemented by our country's president.

**Keywords:** Morality, hadith, education, "Amir-ul-mo'minin", "Imam al-Muhaddisiyn" saheeh, "Kitab al-ilal", "Birr al-Woladayn", "Kitab al-ashribati", "al-Jome' as-sahih", "al-Adab al-mufrad", recitation.

**Саидназарова Гулшан Болта кизи**  
Преподаватель кафедры педагогики  
Бухарского государственного университета

### **ИЗУЧЕНИЕ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АЛЬ-БУХАРИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

**Аннотация.** В статье дан краткий обзор жизни, научной деятельности и творчества имама Исмаила аль-Бухари, а также изучена деятельность имама Исмаила аль-Бухари, в том числе суть реформ, проводимых президентом нашей страны.

**Ключевые слова:** Мораль, хадисы, образование, «Амир-уль-моминин», «Имам аль-Мухадисийн», сахих, «Китаб аль-илаль», «Бирр аль-Воладайн», «Китаб аль-ашрибати», «аль-Джоме ас-сахих», «Аль-Адаб аль-муфрад», декламация.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N63>

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - bu ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash hisoblanadi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev

ta'kidlaganlaridek: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun, mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol etkazish uchun birdek mas'ulmiz [1].

O'z xalqining boy madaniy, ma'rifiy milliy merosini, tarixini, bobomeros an'analari, qadriyatleri, urf-odatleri, bayramleri, marosimleri mazmuni va ularning umumbashariy ahamiyatini bilmagan yoshlarda milliy ma'naviy-axloqiy fazilatleri shakllantirib bo'lmaydi.

Hadis ilmining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosini xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rni juda kattadir. Buyuk alloma "Sahih" yo'nalishining asoschisi Imom Ismoil al-Buxoriyning to'liq ismlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn Mug'iyra ibn Ahnaf Bardizbah Jo'fiy buxoriydir. hadis ilmida "Amir-ul-mo'minin", "Imom al-muhaddisiyn" ("Barcha muhaddislarning peshvosi") degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. Imom Buxoriy ilmi, ahli fazl va solih oilada Milodiy 810 yilning 13 mayida (ba'zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug'ilgan. U kishi kichik paytlarida otalari vafot etib, etim qoldilar va akalari Ahmad va onalari tarbiyasida o'sdilar. Dastlabki ilmni Buxorodan boshladilar. Boshlang'ich ilmdan tahsil olib bo'lganlaridan keyin hijriy ikki yuz beshinchi sanada hadisdan dars olishni boshladilar.

Imom Buxoriy u erda o'zlari izlab yurgan narsani topdilar. Gohida Madinaga ham borib turar edilar. Makkai Mukarramada ba'zi kitoblarni tuzatdilar va "Al jome as-sahih" va uning tarjimalariga asos soldilar. Imom Buxoriy o'z hayotleri davomida ko'p marotaba va tom ma'noda sermahsul safarlarda bo'ldilar. U kishi o'z zamonalarida qarib barcha islomiy mamlakatlarga ba'zilariga esa bir necha marotaba safar qildilar. Xususan Xuroson, Jibol, Iroq, Hijoz, SHom, Misr Bao'dod shaharlariga bir necha marta borib u erdagi muhaddislardan hadislarni eshitib yio'ganlar.

Imom Buxoriy yoshligidan iste'dodli, juda kuchli ilm va xotiraga ega kishi bo'lganlar har bir o'qigan hadisni yod olib xotiradadan so'ragan kishiga xatosiz aytib berganlar hattoki yoshlikdagi o'rtoqlari ham hadislarda qilgan xatolarini shu kishi orqali tuzatib olganlar. Manbalarga ko'ra, Bao'dod shahrida istiqomat qilgan vaqtida ko'pincha qorong'u kechalari sham yorug'i va oyniing nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o'sha fikrni qog'ozga tushirar, shu tahlitda ba'zan shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan [2].

U zot faqirlarga mehribon, qo'li ochiq, sahiy inson bo'lib, otalaridan qolgan ko'p miqdordagi molni sadaqa qilganlar. Imom al-Buxoriyning eng ulug' fazilatlaridan yana biri u taassub (mutaassiblik)ning har qanday ko'rinishlaridan uzoq bo'lganidir. Uning shoh asari «Sahih al-Buxoriy» bilan chuqurroq tanishilsa, al-Buxoriyning o'z kitobidagi ma'lumotlarga nihoyatda katta sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko'ramiz. Qanchadan-qancha mashaqqatlar bilan to'plangan hadislariing sahihligiga to'la ishonch hosil qilib, obdon

tekshirgandan keyingina o'z asariga kiritganligi bu fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Imom al-Buxoriyning «Sahih» asari haqida gapirar ekanmiz, shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu kitobning sahih isnodlarida ahli sunnaga mansub bo'lmagan roviylar ham uchraydi. Al-Buxoriy muhaddislarda hadislariga bo'lgan katta mehr va intilish hamda unga qat'iy amal qilish har qanday tahsinga sazovor, deb hisoblardi. Bu masala g'oyatda muhim bo'lib, bu xususda ba'zi muhaddislarning o'zlari ham fikr-mulohaza bildirganlar. Jumladan, imom Ahmad ibn Hanbal: «O'zim amal qilmagan bitta ham hadisni kitobga olmaganman», - deb ta'kidlagan bo'lsa, o'z davrining yirik muhaddislaridan biri sanalgan Vakiy ibn al-Jarroh: «Agar biror hadisni yodlashni istasang, eng avvalo, unga amal qil», - degan. Yana bir muhaddis Ibrohim ibn Ismoil esa: «Hadislarni yodlashda, eng avvalo, unga amal qilish yo'lidan foydalanardik», - deb ta'kidlagan, alloma as-Suyutiy o'zining «At-Tadriyb» nomli asarida bu jarayonni quyidagicha ifodalaydi. «Ibodatlar, odob-axloq, fazilatlar, solih a'mollar xususida eshitgan hadislardan samarali foydalanish lozim. Bu, birinchidan, ushbu hadisning zakoti, ikkinchidan esa, uni yodlash uchun yaxshi omildir». Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o'z ilmiy-ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Ular quyidagilardan iborat: «Al-Jomi' as-sahih», «Al-Adab al-mufrad», «Kitob al-kuna», «Kitob al-favoid», «Juz' raf' al-yaddayn», «At-Tarix al-kabir», «At-Tarix al-avsat», «At-Tarix as-sag'ir», «Al-Jomi' al-kabir», «Xalq af'ol al-ibod», «Kitob az-zuafo as-sag'ir», «Al-Musnad al-kabir», «At-Tafsir al-kabir», «Kitob al-hiba», «Asomiy as-sahoba», «Kitob ul-vuhdon», «Kitob al-mabsut», «Kitob al-ilal», «Birr al-volidayn», «Kitob al-ashribati», «Qazoyo as-sahoba va-t-tobin», «Kitob ar-Riqoq», «Al-Jomi' as-cag'ip fi-l-hadis», «Al-Qiroatu xalf al-imom».

Hozirda yurtimiz allomaning ko'plab asarlari chop etilmoqda. Imom Buxoriy hazratlarining «al-Jome' as-sahih», «al-Abad al-mufrad» asarlari ham bir necha bor minglab nusxalarda chop etilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi elyurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarori (1997 yil 29 aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktyabrda Samarqandda yubiley to'ytantalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Buxoriyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi (1998 yil 4 noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni karim va Buxoriyning «al-Jomi' as-sahih»i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000 yildan boshlab mazkur jamg'arma o'zining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy «Imom al-Buxoriy saboqlari» jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma'naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog'lom idrok etilishiga yordam berishni uz oldiga maksad qilib qo'ygan. O'zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan.

Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qismli film (1995), «Hadis ilmining sultoni» 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan.

Bugungi kunda ham Imom Ismoil al-Buxoriyning boy ilmiy meroslari va u zotning islom olamida tutgan bemirolarini keng jamoatchilikka tanitish ishlariga doir Prezident hamda hukumat qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 mart kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" 2855-sonli qarori hamda buyuk allomalarimizning ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganib, ularning islom ma'naviyati va falsafasi hamda jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini xalqaro hamjamiyatga yetkazishdagi faol ishtiroki, hadisshunoslikning rivojlanishi, uning ilmiy-ma'naviy asoslarini har tomonlama o'rganish asosida hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqaro hamjamiyatga yetkazishdagi ulkan xizmatlari va ajdodlarimiz qoldirgan asarlarni tarjima, tadqiq va tahlil qilish orqali ulardagi insonparvarlik, Vatanga muhabbat g'oyalarini targ'ib etish hamda jamiyat ma'naviy hayotining bugungi kundagi dolzarb muammolarini hal etishning ilmiy-ma'rifiy asoslarini ishlab chiqishga qo'shgan munosib hissasi uchun qonunchilik palatasi tomonidan Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 13-avgustda ma'qullangan "Imom buxoriy" ordenini ta'sis etish to'g'risida O'RQ-789-sonli qonuni buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Mazkur qarordan ko'zlangan maqsad buyuk vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning boy merosi, u zotning jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yosh avlodni millatlar va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyati va ijodiy merosini juda ko'plab olimlarimiz o'rganishmoqda va bu borada juda ko'p salmoqli ishlar ham amalga oshirilyapti jumladan U. Uvatov ilmiy tadqiqot ishida uch buyuk muhaddisning (Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy) hayot yo'llari, ichki va ilmiy dunyolari, ularning insoniy fazilatlarini, ilm-fan ravnaqi yo'lidagi qilgan xizmatlari, mazkur hadisshunoslarning o'zaro aloqalari, ularning ilmiy-ma'naviy merosini o'rgangan [3].

K.J.Nosirov Imom al-Buxoriyning ilm-fan va ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari, axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlari tahlil etilgan va mutafakkir tomonidan ilgari surilgan axloqiy tarbiya haqidagi fikr va qarashlarining yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyatini tadqiq etgan [4].

B.Eshonjonov Imom Buxoriyning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini amalga oshirib, IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning "al-Jomi' as-sahih" asaridagi fiqqiy masalalarni o'rganib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olimning fikricha Imom al-Buxoriyning hadislar to'plami "Al-Jome' as-sahih" musulmonlar axloq-odobi, ibodati, ijtimoiy mezonlarini belgilovichi manba va umuminsoniy qadriyatlar namunasi sifatida e'tirof etgan [5].

N.To'rayev tomonidan "Imom Buxoriyning "at-Tarix al-kabir" asarida roviyning shaxsi, ustoz va shogirdlari, umrida yolg'on so'zlamagani, xotirasining mustahkamligi, yashash davri va joylari kabi ishonchlilikni belgilash uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillar jamlangani sababli mazkur kitob «jarh va ta'dil» hamda «ilal al-hadis»ga doir manba ekani dalillangan hamda «at-Tarix al-kabir» roviylarning ishonchliligini belgilashda muhim manba sanalgani bois Imom Buxoriyning mashhur «al-Jome' as-sahih» asari muhaddislar tomonidan sahih to'plam sifatida

alohida e'tirof etilishiga sabab bo'lgani isbotlangan. Imom Buxoriy 13 xil «jarh» va 8 xil «ta'dil»ga taalluqli atamalardan jami 600 o'rinda foydalangan bo'lib, 107 nafar roviyni ishonchli, 493 nafarini zaif deb ajratgani hamda asarda «jarh» yoki «ta'dil» bahosi berilmagan 13 mingdan ziyod roviylarning hukmi esa, umumiy tarzda «ishonchli» deb qabul qilingani ochib berilgan [6].

A.Inoyatov tomonidan "Imom Buxoriyning "al-Jome' as-Sahih" asaridagi tafsir ilmiga oid qarashlari" mavzusida PhD himoya qilingan. Ushbu tadqiqot "al-Jome' as-sahih" asaridagi tafsirga oid hadislar tahliliga bag'ishlangan [7].

Eshonjonov B. I. -2000 yilda " IX asr Movarounnahr madaniy hayotida Imom al-Buxoriyning mavqei va uning " al-Jomi' as-sahih" asarida", Nosirov K. J. -2000 IX X asrlarda O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari (Al-Buxoriy va al-Forobiy asarlari misolida) kabi ilmiy ishlarida Imom Ismoil al-Buxoriy faoliyatini o'rganib ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiq etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan va boshqa manbalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, Imom al-Buxoriyning hayoti, ijodi va uning falsafiy-axloqiy qarashlariga doir batafsil ma'lumotlar mavjud bo'lsada, mutafakkirning pedagogik qarashlari yaxlit shaklda o'rganilmagan va uning pedagogik g'oyalaridan hozirgi kundagi ta'lim konsepsiyasini rivojlantirishda foydalanishning pedagogik jihatlari maxsus tadqiqot sifatida tadqiq etilmagan. Bu esa, Imom al-Buxoriyning pedagogik merosini o'rganish va umumlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini belgilab berdi. Zero, mutafakkir tomonidan to'plangan hadislarning mazmuni va ularda ifodalangan asosiy g'oyalar, muhaddisning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar, etakchi axloqiy tamoyillar o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda hadislardan foydalanishni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda yuksak axloqiy fazilatlar: mehr-oqibat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, hurfikrlilik, odamiylik kabi sifatlarni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Imom Ismoil al-Buxoriyning boy ma'naviy merosi ayniqsa, "Al adab -al mufrad"asari bilan yaqindan tanishish natijasida asar shaxsni ma'nan yetuk, axloqan poklikka yetaklash manbai ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu fikrlar asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarida Imom Ismoil al-Buxoriy ma'naviy merosini o'rganish jarayonining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: komil inson, o'zlikni anglash ijtimoiy zaruriyat bo'lib, bu muammoning hal etilishi milliy va umumbashariy qadriyatlardan unumli foydalanish, barkamol insonni tarbiyalashdek ulkan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Imom Ismoil al-Buxoriyning ma'naviy merosi ta'lim jarayonida ta'lim -tarbiyaning uzviylik, amaliyot bilan bog'liqlik, muntazamlilik, davomiylik, onglilik, faollik tamoyili, ta'limda o'quv faoliyatini yaxlit shakllantirish, ta'limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyillariga mos keladi. Buyuk muhaddisning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash imkonini beradi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган

- тантанали маросимдаги маърузаси  
([хттпс://сонститутион.уз/уз/пагес/президент\\_марузаси\\_25йил](https://сонститутион.уз/уз/пагес/президент_марузаси_25йил) )
2. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1993 йил. 29 октябр. №43-44
  3. Уватов У. Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадим илми ривожда тутган оърни. -Т., 2004.
  4. Носиров К.Ж. IX-X асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия ҳақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Фаробий асарлари мисолида) дис. ... педагогика фан. номзоди, -2000
  5. Эшонжонов Б. IX аср Мовароуннаҳр маданий ҳаётида Имом ал-Бухорийнинг мавқеи ва унинг “ал-Жомий ас-саҳиҳ” асаридаги фикрий масалалар. – Т.: 2000. – 175 б.
  6. Тўраев Н. Имом Бухорийнинг «ат-Тарих ал-кабир» асари ҳадис илмига оид муҳим манба. – Т.: 2020. – Б. 175 б.
  7. Инояттов А. Имом Бухорийнинг “ал-Жомей ас-Саҳиҳ” асаридаги тафсир илмига оид қарашлари. – Т.: 2021. – 197 б.
  8. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам) 4-жилд. - Ташкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992 йил.
  9. Ал-Бухорий И. И. Ал-адаб ал муфрад: Адаб дурдоналари //Т.: Ўзбекистон. – 1990. – Т. 196.
  10. Imom Buxoriy ta'rifi. –Т.: Cho'lpon, 1996. –В.22
  11. Musayeva M. Hadislar va ijtimoiy hayot //Imom al-Buxoriy saboqlari. -№1,2007. –В.70-71.
  12. Nomozov V. Oilada erning o'rnini // Imom al-Buxoriy saboqlari. -№ 1,2012. В.34-35.
  13. Жураев Б. Т. ВОПРОСЫ ПРАВСТВЕННОГО И КУЛЬТУРНОГО ВОСПИТАНИЯ В ЭПОХУ САМАНИДОВ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА АЛ-БУХАРИ И АЛ-ФАРАБИ) //Современное общество: актуальные проблемы и перспективы развития в социокультурном пространстве. – 2020. – С. 66-71.
  14. Жураев Б. SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/2. – С. 343-350.
  15. Саидназарова Г. Б. Навык педагогического влияния //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 80-81.
  16. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).